

MILLIY MUSIQA MEROSIMIZ

Zahiriddinova Nigina

Andijon davlat pedagogika instituti Magistratura bo'limi "Musiqqa ta'limi va san'at" yo'nalishi 1-bosqich talabasi

Annotatsiya: Maqolada o'zbek xalqining milliy musiqqa merosi, uning tarixiy ildizlari va ma'naviy ahamiyati yoritilgan. Unda dutor, tanbur, nay, doira kabi milliy cholg'ularning xalq hayotidagi o'rni hamda "Shashmaqom" kabi mumtoz musiqaning badiiy qiymati haqida so'z yuritiladi. Shuningdek, milliy musiqani asrab-avaylash va yosh avlodga yetkazishning ahamiyati ta'kidlanadi.

Kalit so'zlar: milliy musiqqa, marosimlar, urf-odatlar, milliy cholg'u asboblari, ijtimoiy munosabat, diniy marosim, xalq qo'shiqlari, laparlar, ashulalar.

Abstract: The article explores the national musical heritage of the Uzbek people, its historical roots, and its spiritual significance. It discusses the role of national instruments such as the dutor, tanbur, nay, and doira in the life of the people, as well as the artistic value of classical music like "Shashmaqom." In addition, the article emphasizes the importance of preserving national music and passing it on to the younger generation.

Keywords: national music, ceremonies, traditions, national musical instruments, social relations, religious ceremony, folk songs, lapars, chants.

Har bir xalqning o'ziga xos madaniyati, tarixi va san'ati bo'ladi. Bu boyliklar ichida milliy musiqqa alohida o'rin egallaydi. Musiqqa — bu nafaqat san'at turi, balki xalqning ruhini, tarixini, orzu-umidlarini ifodalovchi madaniy merosdir. O'zbek xalqining milliy musiqqa merosi ham ming yillik tarixga ega bo'lib, u ajdodlarimizning boy ma'naviy dunyosini aks ettiradi.

Milliy musiqamizning ildizlari qadimiy marosimlar, urf-odatlar va xalq og'zaki ijodiga borib taqaladi. Dutor, tanbur, nay, doira kabi milliy cholg'u asboblari musiqiy merosimizning ajralmas qismidir. Bu cholg'ular orqali xalqimiz dardini, quvonchini, orzu-umidlarini ifodalab kelgan. Misol keltirishimiz mumkinki, qadimgi davrlardan oq musiqiy cholg'ular o'zbek xalqining maishiy turmushida turli sohalarda qo'llanilgan. Musiqqa xalqning tarixini saqlab qolishda ham muhim ahamiyatga ega. Marosim qo'shiqlari, mehnat qo'shiqlari va lirik ashulalar ajdodlarimizning hayot tarzini aks ettiradi. Bugungi kunda milliy musiqamiz zamonaviy uslublar bilan uyg'unlashib, yoshlar orasida ham keng tarqalmoqda. Ular nafaqat o'yin-kulgi vositasi, balki ijtimoiy munosabatlar, diniy marosimlar va ma'naviy hayotning muhim tarkibiy qismi bo'lgan. Quyida ularning asosiy qo'llanish sohalari keltiriladi:

"Marosimlarda va bayramlarda qo'llanilishi: O'zbek xalqining to'y, nikoh, sunnat to'y, motam marosimlari kabi an'anaviy tadbirlarida musiqiy cholg'ular muhim rol o'ynagan. Masalan:

To‘ylarda: Surnay va doira o‘zbek to‘ylarining ajralmas qismidir. Surnayning baland va quvnoq sadosi to‘y karvonini (kuyov karvoni yoki kelin olib kelish marosimi) kuzatib borgan, doira esa raqslar va o‘yin-kulgilarga hamrohlik qilgan. “Yalla” va “Lazgi” kabi xalq raqslari doira va qo‘shnay sadolari ostida ijro etiladi.

Diniy marosimlarda: Chang va rubob kabi cholg‘ular zikr marosimlarida, ayniqsa, tasavvuf musiqasida keng qo‘llanilgan. Bu cholg‘ularning tinchlantiruvchi va ma’naviy sadosi odamlarni o‘ziga jalb qilib, ularga ruhiy ozuqa bergan.

Motam marosimlarida: Nay va g‘ijjak kabi cholg‘ularning g‘amgin ohanglari motam marosimlarida foydalanilgan. Ular xalqning qayg‘u va yo‘qotish hissiyotlarini ifodalashda muhim vosita bo‘lgan.

2. Kundalik hayotda

Musiqiy cholg‘ular nafaqat maxsus marosimlarda, balki kundalik hayotda ham xalqning ruhiy olamini boyitgan:

Mehnat jarayonida: Chorvachilik bilan shug‘ullangan o‘zbeklar nay va sibizg‘i kabi cholg‘ulardan foydalanib, o‘zlarining mehnat jarayonlariga ohang qo‘shgan. Masalan, cho‘ponlar nay chalib, qo‘y-qo‘zilarini boshqargan va bu musiqalar ularning ishini yanada maroqli qilgan.

Oilaviy yig‘inlarda: Dutor va tanbur kabi cholg‘ular oilaviy yig‘inlarda, xonadonlarda xalq qo‘shiqlari va dostonlarni ijro etishda ishlatilgan. Bu cholg‘ular o‘zbek xonadonlarida doimiy mavjud bo‘lib, xalq o‘rtasida musiqa san’atini rivojlantirishga xizmat qilgan.

3. Ma’naviy va tarbiyaviy ahamiyati

Musiqiy cholg‘ular o‘zbek xalqining ma’naviy hayotida muhim o‘rin tutgan. Masalan:

Dostonchilikda: “Alpomish”, “Go‘ro‘g‘li” kabi dostonlar dator yoki rubob sadolari ostida ijro etilib, xalqning tarixiy xotirasini saqlab qolgan. Bu cholg‘ular yosh avlodni vatanparvarlik, jasorat va mehr-oqibat ruhida tarbiyalashda muhim vosita bo‘lgan.

□ **Ma’rifiy ta’siri:** Musiqa orqali xalq o‘zining axloqiy qadriyatlarini, mehr-muhabbat, sadoqat kabi his-tuyg‘ularini ifodalagan. Masalan, g‘ijjakning o‘tkir va chuqur sadosi odamlarning ichki kechinmalarini ifodalashda muhim rol o‘ynagan⁶.

Shuningdek, xalq qo‘shiqlari, laparlar, ashulalar va maqom san’ati o‘zbek musiqasining asosiy boyligini tashkil etadi. Ayniqsa, Shashmaqom milliy musiqamizning eng yuksak namunalaridan biri hisoblanadi. Unda nafosat, ruhiy boylik va san’at go‘zalligi mujassamdir. Bu musiqiy yo‘nalish nafaqat yurtimizda, balki butun dunyoda tan olingan.

Mumtoz musiqamizning ta’sir kuchi va umrboqiyliги ulardagi ma’naviy-axloqiy ma’noning chuqurligi, musiqiy ohangning go‘zalligidir deb aytishimiz mumkin. Darhaqiqat, asrlar osha davr tahririga uchrab, sayqallashib, teran mazmuni, jozibali va ohangdor kuylari bilan bizgacha yetib kelgan mumtoz musiqa namunalari hanuzgacha eng sevimli, eng ardoqli xalq asarlari bo‘lib qolmoqda.

“Mumtoz musiqa asarlarining badiiy kuchi — ularning xalq orzu-umidlari, his-tuyg‘ulari, fazilatlar va turmush haqiqatlari bilan uyg‘unligi, kishilarning ruhini, dardini aks

⁶ <https://dsmi.uz/wp-content/uploads/2025/06/23-06-2025-mag.pdf>

ettirishda undagi tinglovchilarga ham birday yoqimli, soʻz va ohang, soz va kuy mushtarakligidadir”⁷.

Milliy musiqa merosimiz — bu oʻzbek xalqining bebaho boyligi. Uni asrab-avaylash, yosh avlodga yetkazish va rivojlantirish har birimizning muqaddas burchimizdir. Chunki milliy musiqa xalqning qalbi, madaniyatining ildizi va tarixining ajralmas qismidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Matyoqubov, O. “Oʻzbek xalq musiqasi asoslari”. Toshkent, 2004.
2. R.S.Abdullayev “Oʻzbek mumtoz musiqasi” Toshkent “Yangi nashr” 2008
3. 2.Abdullaev, R. “Oʻzbek cholgʻu musiqasi”. Toshkent, 1998.
4. Nurullayev T. Oʻzbek xalq musiqasi asoslari. -T.: Sanʼat, 2012.
5. Matyaqubov O. Ogʻzaki anʼanadagi professional musiqaga kirish. -T.: Musiqqa, 1983.

⁷ R.S.Abdullayev “Oʻzbek mumtoz musiqasi” Toshkent “Yangi nashr” 2008